

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**A.Sharafiddinov**

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi  
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

**M.M.Temirova**

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari ..... 208

**Q.Sulaymonov**

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni ..... 213

**X.E.Xodjamberdiyev**

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

**A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev**

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi  
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

**M.M.Abdullayeva**

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi  
(Namangan viloyati misolida) ..... 226

**F.Abdurasulova**

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi  
davrida rivojlanishi ..... 232

**A.A.Aloxunov**

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati..... 236

**M.B.Siddiqov**

Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi ..... 241

**G.A.Abdug'aniyeva**

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi ..... 247

**N.V.Karimova**

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

---

**ADABIYOTSHUNOSLIK****A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati ..... 257

**G.V.Abdullayeva**

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

**S.Q.Mamatova**

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

**N.Y.O'roqova**

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini ..... 271

**D.A.Qahharova**

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

**S.A.Xaqnazarova**

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar ..... 287

**M.Islomova**

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur ..... 290

**A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova**

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) ..... 294

**Y.B.Eshmatova**

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

**Д. О.Турдалиев**

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации ..... 303

**F.B.Sultonqulova**

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи ..... 306

**G.A.Jurayeva**

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310



УО'К: 930.85:94(575.1)

**FARG'ONA VODIYSI ANTIK DAVR SHAHRLARI TARIXIY–TOPOGRAFIYASINING  
O'RGANILISHI**

**ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИКО-ТОПОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ДРЕВНИХ  
ГОРОДОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ**

**STUDY OF THE HISTORICAL AND TOPOGRAPHIC FEATURES OF THE ANCIENT  
CITIES OF THE FERGANA VALLEY**

**Karimova Nazokat Voxidjon qizi** 

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Farg'ona vodiysida ilk shahrlarni vujudga kelishi, vodiya dehqonchilik madaniyati markazlashgan ishlab-chiqarish bilan chambarchast bog'liqlikda olib borilgan. Shaharlар agroirigatsion vohalarda ishlab-chiqarish hamda savdo markazlari shakillanishi jarayonlari sifatida shakillandi. Vohalardagi shahar markazlarini shakillanish jarayonlari jamiyatda muhim ahamiyatga ega omillardan sanaladi. Farg'ona vodiysidagi antik davr shaharlari topografiyasi ilk temir davri shaharlardan tubdan farq qiladi. Maqolada ularni mintaqadagi migratsion jarayonlar bilan bog'lab o'rganilmoqda.*

**Аннотация**

*Возникновение первых городов в Ферганской долине было неразрывно связано с развитием сельскохозяйственной культуры, особенно с централизованным производством. Города формировались как производственные и торговые центры в агроирригационных оазисах. Процессы формирования городских центров в оазисах имеют большое значение для общества. Топография античных городов Ферганской долины значительно отличается от городов раннего железного века. В статье рассматривается связь этих городов с миграционными процессами в регионе.*

**Abstract**

*The emergence of the first cities in the Fergana Valley was closely linked to the development of agricultural culture, particularly centralized production. The cities formed as production and trade centers in agro-irrigation oases. The process of forming urban centers in the oases is considered one of the significant factors in society. The topography of ancient cities in the Fergana Valley differs substantially from that of early Iron Age cities. The article examines their connection with migration processes in the region.*

**Kalit so'zlar:** Marhamat, Mingtепа, Axsikent, Quva, mikrovohalar, tarixiy topografiya, landshaft, qo'rg'onlar, paleobotanika, paleozoologiya, paleoekologiya, sug'orilish tizimi.

**Ключевые слова:** Мархамат, Мингтепа, Аксикент, Құва, микроаазисы, историческая топография, ландшафт, курганы, палеоботаника, палеозоология, палеоэкология, ирригационная система.

**Key words:** Marhamat, Mingtепа, Axsikent, Kuva, microoases, historical topography, landscape, tombs, paleobotany, paleozoology, paleoecology, irrigation system.

**KIRISH**

Jamiyatning urbanizatsiya jarayonini o'rganish muammosi tarix fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir shahar madaniyatlarining dastlabki bosqichlarini o'rganishda topilgan arxeologik manbalar va yodgorliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Urbanizatsiya jarayonlarini to'liq o'rganish uchun arxeologik tadqiqot olib borgan arxeolog olimlarning ilmiy ishlarini ko'rib chiqish taqozo etiladi. Asosan Sovet davri arxeologlari tomonidan ko'plab ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Mutaxasislar tomonidan birinchi marta arxeologik jihatdan o'rganish 1884–1885-yillari sharqshunos va arxeolog N.I. Veselovskiy O'rta Osiyo, xususan Farg'ona vodiysida ilk arxeologik tadqiqot ishlarini olib boradi. Arxeolog olim o'z diqqatini musulmonlik davri yodgorliklarini hamda Kosonsoy (Mug'), Axsikent, O'zganni tadqiq etishga qaratdi. Ayniqsa N.I. Vaselovskiy Shimoliy Farg'onadagi 30 ga yaqin qabrlarni o'rganishi alohida ahamiyat kasb etdi.[3.5-6] Lekin ushbu mozor-qo'rg'onlar qaysi shahar yodgorliklariga tegishli ekanligi haqida fikrlar yuritmadi.

## TARIX

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Farg'ona ekspeditsiyasining asosiy e'tiborini ilk bronza davri madaniyati yodgorliklarda chorvador va o'troq aholi madaniyatini qiyoslashga kirishdi. B.A.Latinin fikriga ko'ra Farg'ona vodiysida mil. avv. VI-IV ming yilliklarda dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo'lgan. [16.1961.A] Farg'ona vodiysining Chust va Dalvarzintepadan topilgan uy hayvon suyaklarini faqat yirik shohli qoramol va mayda shohli hayvonlarga ajratish bilan ijtimoiy-iqtisodiy hayot haqida xulosalar chiqarish bilan cheklandi. Farg'ona vodiysiga uyuşdırılan dastlabki ekspeditsiyalar 1930–1934-yillarda B.A.Latinin boshchiligidagi miłoddan avvalgi I asrlar Farg'ona vodiysi yodgorliklarini ilmiy tadqiq etishga asos soldi. [15.1961].

1928–1930-yillarda Leningrad Davlat Ermitaji muzeysi xodimi B.A.Latinin Uchqo'rg'on elektr stansiyasi qurulishi munosabati bilan qurulish yaqin yerlarda arxeologik kuzatuvlar olib bordi. O'zidan oldingi olib borilgan tadqiqotlardan farqli o'laroq B.A.Latinin musulmonlikkacha bo'lgan yodgorliklarni o'rganish bilan shug'ullandi. [3.7] Uning eng katta xizmatlaridan biri hali fanga ma'lum bo'lmagan ko'plab yodgorliklarni aniqlaganligi, Farg'onaga xos bo'lgan qizil angobli va bo'yoq bilan, bezak solingen sopol buyumlar majmuasi topilishi shular jumlasiga kiradi. [13.31-44] Bu olimning yana bir xizmati u O'rta Osiyoda birinchi bo'lib, yirik dehqonchilik hududining Farg'ona Vodiysidagi sug'orilish tizimi tarixini o'rganilishini boshlab bergani bo'ldi. [16.1961.A] Bu sohani kelajakda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tdi.

1939–1940-yillarda O'zbekistonda ham yirik bunyodkorlik ishlari olib borildi. Ayniqsa sug'orish tarmoqlarini qurulishi avj oldi yangi yerlar o'zlashtirilgan davri edi. Bular ichida Katta Farg'ona va Janubiy Farg'ona kanalarini qurulishi vaqtida olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari o'z ko'lami bilan ajralib turadi. 270 km uzunlikdagi hududda qazish ishlari arxeologlar e'tiborida bo'ldi. Farg'ona vodiysining qadimgi tarixi to'g'risda bebaño ma'lumotlar qo'lga kiritildi. [12.44-50] Qurilishni bunchalik tez borishi shak-shubhasiz juda ko'plab yodgorliklarni yo'q bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchı jahon urushidan keyingi 1946-yıldan boshlab, yetti arxeologik dala mavsumi davomida Farg'ona vodiysida yirik arxeologik jihatdan o'rgangan xitoysunos professor A.N.Bernshtam (1910–1956) arxeologik tadqiqotlar olib bordi. Shu maqsadda 1950–1952-yillarda Pomir-Farg'ona kompleks arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi. A.N.Bernshtam olib borgan tadqiqotlari davomida qadimgi dehqonlar va chorvadorlar, shahar va qishloq xarobalarini bir xil darajada o'rgandi. [7.8] Agar N.I.Vaselovskiy asosan o'rta asr yodgorliklarini B.A.Latinin o'rta asrlargacha bo'lgan davr yodgorligini o'rganishgan bo'lsalar, A.N.Bernshtam keng qamrovli tadqiqotlar olib bordi. Masalan qadimgi tosh asridan to XVIII-XIX asrlargacha bo'lgan tarixiy yodgorliklarni o'rgandi. Farg'ona vodiysidagi yirik arxeologik yodgorliklar bo'lmish Eylaton yodgorligida, Mingtepa (Marhamat)da, Kosonda, Axsikentda, Quvada, O'zganda ilmiy tekshirish tadqiqotlarini olib bordi. [8.34] Tarixiy yozma manbalarni qazishma natijalari bilan solishtirib ko'rish natijasida arxeologik olim xulosalar chiqardi. Bunday xulosalaridan biri qadim Farg'ona madaniyati va turmush tarzini ikki xil yo'nalishga bo'lgan bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik deb ta'kidlab o'tgan. Bir-biriga ta'siri to'g'risidagi g'oyalarni berib o'tadi. [3.7-8] A.N.Bernshtam bergen dastlabki xulosalarini ya'ni qadimgi Farg'ona vodiysi aholisi ko'chmanchi-chorvadorlardan chiqqan degan nazariyasi [7.17] keying yillarda olib borilgan, arxeologik tadqiqotlar asosida o'z tasdig'ini topmadı. A.N.Bernshtam yoki shu davr arxeologlari yodgorliklarni bir uzoq muddatli tadqiqot rejasida olib bormadilar. Misol uchun hozirda O'zbekiston–Xitoy qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi Mingtepada shahar tarixiy topografiyasini o'rganishga qaratgan tadqiqotlar singari yoki biron qabristonni to'la-to'kis o'rganishni rejalashtirmadilar.

Farg'ona vodiysini arxeologik o'rganish davri XIX asr oxirlaridan ya'ni rus tabiatshunos olimlari A.P.Fedchenko, N.A.Seversov, A.F.Middendorflarni axyon-axyonda o'tmish yodgorliklar to'g'risidagi ma'lumotlar to'plagan vaqtidan boshlangan deb hisoblaslanadi. [3.5]

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Arxeologik ishlar natijasida A.N.Bernshtam yodgorliklarni tasnifini va qadimgi Farg'ona arxeologik yodgorliklarining davriyigini ishlab chiqdi. U Farg'onaning tog'li hududlarida qadimgi chorvadorlarcha xos yodgorliklarga katta e'tibor berdi. Uning asarlarida Farg'ona bronza davridan o'rta asrlargacha bo'lgan tarixiy jarayonlarining xususiyatlarini ochib berdi. [8.16] Y.A.Zadneprovskiy Farg'onaning bronza (Chust, Dalvarzin) davri uchun atofi devor bilan o'ralgan arksiz dehqonchilik madaniyatiga xos manzilgohlar harakterli deb hisoblaydi. [13.36] Ikkinchı o'ziga xosligi bu

markazlashgan kulolchilikni yo'qligini asos qilib oladi.[12.116] A.A.Anorboyev va B.X.Matboboyev ustozlar tajribasini davom ettirib, qadimgi va o'rta asrlar Farg'ona tarixi madaniyatiga oid ko'plab ilmiy ishlarini e'lom qildilar. [12.117] Mingtepa yodgorligida xitoylik hamkasblari bilan rejali asosda olib borilgan ishlari antik davr Farg'ona shaharsozlik tarixiy topografiyasini o'rganishda katta o'zgarishlar kiritdi. [18.14]

Markaziy Osiyo hududidagi urbanizatsiya jarayonlari bronza va ilk temir davrlarida ibtidoiy jamoa tuzumi o'rniga sinfiy jamiyatlarni kelishi bilan voha markazlarida kichik shahar-davlatchalar vujudga kela boshladi. O'rta Osiyo ilk shaharlarining vujudga kelishda Yaqin Sharq shaharsozligi yaqqol kuzatiladi.[20.15]

O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlarini rivojlanishini shartli ravishda uch bosqichga ajratish mumkin:

I davri – mil. avv. III – II ming yillik birinchi yarmida vujudga kelgan Janubiy Turkmaniston (Oltintepa, Nomozgohtepa), Yuqori Zarafshon (Sarazm), yodgorliklari;

II davri – mil. avv. III–ming yillikning o'talaridan (mil. avv. 2200 yy.) tashkil topgan – Janubiy Turkmaniston (Gonortega), Janubiy O'zbekiston Jarqo'ton;

III davri – mil. avv. – I ming yillik o'talarida vujudga kelgan Ko'ktepa, Afrosiyob, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Sug'd hududida, Chust, Dalvarzintepa Farg'ona vodiysida katta suv tarmoqlarida ilk shahar markazlari shakillanadi.[11.39] Farg'ona vodiysida bronza davri Chust madaniyatni goh bronza davriga goh ilk temir davriga taalluqli deb ta'kidlanadi. Y.A.Zadneprovskiy va V.Ruzanovlar radiokarbon tahlillariga ko'ra Chust madaniyati mill. avv. XVI-XV asrdan VII asrgacha mavjud bo'lganligi aniqlandi. [13.1988] Hozirgi kunda bu tahminlar bir necha munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu hududlardagi shaharlarning o'ziga xosligi ularning hokim saroy va ibodatxonalar shaharning shimoliy tomonida alohida mudofaa devori bilan ajratib o'rab o'rab olinganligidir.Qadimgi Markaziy Sug'dning Ko'ktepa va Afrosiyob yodgorliklari shu xildagi tarixiy topografiya shakillangan. Uzunqirda shahar ibodatxonasi Sangirtepa mudofaa devoridan tashqarida qurilgan. Yerqo'rg'onda hozirgacha qadimgi qatlamlari yer osti suvi yuqoriligi uchun noma'lumligicha qolib kelmoqda.

IV bosqichi-miloddan avvalgi III-II asrlarda Yevroсиyo mintaqasida katta migrantsion jarayonlar kuzatiladi, shu jumladan Farg'ona vodiysida, ham yangi turdag'i shaharlar vujudga keladi. Vohalardan farqli o'laroq Farg'ona vodiysida har bir katta suv tarmoqlarining deltalarida hozirda ma'lum bo'lgan Eylaton turidagi rombasimon shaharlar vujudga keladi. Misol uchun Eylaton Qoradaryo suv tarmog'ida, Aksikent Kosonsoy va Mingtepa shahri Aravon soyning suv zaxirasi asosida shakillangan. Vodiyning qolgan soylari misol uchun Sux, Isfayramsov deltalarida xosil bo'lgan antik davr shaharlari hozircha ma'lum emas. Isfayramsov hozirgi Quvasoy shaxridan o'ng va chap tomonlarga soylar orqali ikkiga bo'linib kichik-kichik mikro vohachalarni tashkil qiladi. [11.39] Quvasoy arig'i yangi o'zlashtirilgan yerkarni suv bilan ta'minlab hozirgi quva shahri o'rnida joylashgan antik davr shaxrini shakillantirgan. Biroq Quva shahar xarobasi Mingtepa yoki Eylaton shaharlaridan rombasimon emas. Antik davr Quva shaxri 12 ga maydonni devor bilan o'rab olingan asosiy shaxriston va uning shimoli-g'arrbida ajrab turgan arkidan iborat. Arkning ikki tomonida shahar va ark darvozalari kuzatiladi. Shaharning g'arbiy tomonida shahar topografiyasini aniqlagan, muxum qazishma ishlarini olib borilgan. Bu yerda budda ibodatxonasi va ilk o'rta asrlar shaharliklarning mahallasi ochib o'rganilgan. Bundan tashqari o'rta asrlar g'isht pishiruvchi xumdonlar ochib o'rganilgan, biroq antik davrga xos qizil usti sayqallangan sopol idishlar uchramagan. Shundan kelib chiqib qadimgi Quva antik davrda shakillangan deb qaraladi, agar quyi qatlamlarida antik davr unda o'rta asr qatlamlarida uchragan bo'lar edi.

Mingtepa shahar xarobasi ilk bor 1939-yilda Katta Farg'ona kanali qurilishi munosabati bilan, M.E.Massan rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan o'rganilgan. 1946-yili A.N.Berishtam Mingtepani arxeologik jihatdan o'rganishga kirishdi. Arxeologik topilmalar va yozma manba ma'lumotlarini birinchi bor umumlashtirdi. A.N.Berishtam Mingtepa yodgorligini Xitoy yozma manbalarida keltirilgan Farg'ona davlatining poytaxti Ershi shaxrining o'rni degan fikrga keladi.[7.18] Bunday xulosaga kelishiga xaroba yaqinida joylashgan Aravon qoyalariga yo'nib tushirilgan tosh suratlarini asos qilib oladi. Qadimgidan Ershi aholisi tomonidan zotdor otlar boqilganligi haqidagi ma'lumotlarni, qo'shimcha manbalar orqali bilamiz. Yozma manbalarga ko'ra Ershi ancha katta shahar bo'lib, ikki qator devor bilan o'ralgan. Mingtepa xarobalari ham devorlar bilan ajratilgan, deb N.G.Gorbunova o'zining "Ko'hna Farg'onada" asarida keltirib o'tadi. Uning fikricha, Mingtepa Farg'ona vodiysining qadimiyl

## TARIX

shaharlardan biri bo'lgan, umumiy maydoni 45 ga teng, lekin shaharning ikkinchi mudofaa devori o'rab turgan maydon haqida aytib o'tmaydi. [9.13] Demak o'tgan asrning 60 – yillarda shaharning ikkinchi mudofaa devori aholi tomonidan o'zlashtirilib bo'lingan.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizga hamkorlikda ishlash xohishini bildirib ko'plab xorijiy markazlarning vakillari kirib kela boshladi. B.X.Matboboyev xitoylik arxeologlar bilan Mingtepa shahar xarobasida qazishmalar olib bordi. Uning natijasida shaharni ichki qismi 41,2 ga, tashqi qismi esa 270 – 320 ga maydon mudofaa devori bilan o'rab olingenligi aniqlandi. [17.141-147]

Vodiyyadagi ikkinchi turdagি Mingtepa, Axsikent va Eylaton kabi rombsimon topografik planga ega antik davr shaharlari hisoblanadi. Ular ichida Mingtepa yodgorligi nisbatan keng o'rganilgan va uning tarixiy-topografiyasi atrofi ikkinchi mudofaa devori bilan o'rab olingen, maydoni 273 gadan ortiq ekanligi ma'lum bo'ldi. [4.2009] Mingtepa arkining sharqiy mudofaa devori o'rtaligida shahar qabristoni aniqlanganligi Farg'ona antik davr shaharlari tarixiy-topografiyasi o'rganishdagi yagona manba bo'lib xisoblanadi. Maqolada qabrlardan topilgan arxeologik materiallar miloddan avvalgi II–I asrlarga oid deb hisoblanmoqda. [18.14]

Shu turdagи ikkinchi yodgorlik bu Axsikent bo'lib, uning antik davr madaniy qatlamlari faqat 6-qazishma o'rnida ochib o'rganilgan.[2.2022] Lekin hozirgi vaqtida Axsikentning katta qismi ekinzor qilib o'zlashtirilib foydalaniladi, uy-joy qurilgan, qabriston qilingan, tuproqlardan qurilish ashyosi sifatida foydalanishgan. [5.2013] Shahristonning janubiy – sharqiy qismida olib borilgan, qazishmalar natijasida u yerda naqshli, to'rtburchak "Dovon tipi"ga mansub sopol buyumlar topilib o'rganilgan. Shahristonning quyi qatlamlari miloddan avvalgi III–II asrlarga taalluqli ekanligi qadimshunos olimlar I.Ahrorov va A.Anorboevlarning tadqiqotlari ko'rsatib o'tdi. [9.1962] Asosiy e'tibor samoniylar va qoraxoniylar davrlariga qaratilgan. Hozirga qadar Axsikentda Mingtepa yodgorligiga o'xshagan quyi qatlamlaridan eylaton davriga oid qatlamlar kuzatilmagan.[1.2001]

Eylaton shahar xarobasi o'rganilish tarixi bundan ham munozarali hisoblanadi. Uni davrlashtirish masalasida ikki xil qarashlar mavjud. Y.A.Zadneprovskiy boshchiligidagi mutahasislar Eylattonni madaniyat sifatida ajratib yodgorlikni miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid deb davrlashtirishdi. [13.43-46] Ikkinchi guruh olimlar Eylatonda keng qamrovli qazish ishlarini olib borib uni antik davrga oidligini aytib o'tishdi. Qudratov.S. [19.35-37]; Gorbunova N.G[10.1976.] Hozirgi kunda ko'pchilik mutaxasislar bu davrlashtirish sanasini tan oldilar.

Shahar shaxristoni to'g'risida ham keng qamrovli tadqiqot ishlari olib borilgan, biroq arkdagi xolat, qilingan ishlar to'risidagi xisobotlar saqlanmagan. Shaharning robod qismida antik davr qatlamlari hozirgacha muammo bo'lib qolmoqda.

Quva shahar xarobasi ko'p qatlamli yodgorlik, uning har bir davri tadqiqotchilar oldidagi katta muammolar o'z yechimini kutmoqda.

## XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Quva shaxri ham Eylaton, Mingtepa va Axsikent shaharlari bilan bir vaqtida shakillangan markazlardan biri xisoblanadi. Bu shaharning mudofaa devorlari ostida ham Eylaton madaniyatiga xos sopol o'rniga qizil sayqalli sopol idishlarga almashib borgan. Shu bilan birga shahar topografiyasini o'zga tengdosh Mingtepa turidagi shaharlardan farq qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, antik davr Farg'ona shaharlari ikki xil tarixiy topografiyaga ega bo'lgan. Bunday xol Y.F.Buryakov tomonidan Toshkent vohasida ham kuzatiladi. Quva shaxrining tarixiy-topografiyasi ilk o'rtalarda g'arb va janub tomonlarga kengayadi, uning robod qisida ham jamoa imoratlar quriladi. Biroq, ikkinchi mudofaa to'g'risida o'tgan asrning o'rtalarida kelgan arxeologlar ham biron fikr berishmagan. Lekin quvaga tengdosh Mingtepa turidagi shaharlarning ikkinchi mudofaa devorlari mavjud bo'lganligi, ikkinchi mudofaa devorlarining mavjud bo'lganligiga ishora. Quva shaxristoni antik davrda shakillangan topografiyasi o'zgarishsiz saqlanib qoladi. Quva arkining va shahar darvozalarining o'rni o'zgarishsiz saqlanib qoladi. Qoraxoniylar davrida shahar arki o'rnida shisha maxsulotlarini yasaydigan ustaxonalarni ochib o'rganganligi ark o'z faoliyatini tugatganligidan dalolat beradi. [14.2023] XVII-XIX asrlarda yengil kanstruksiyali uylarda xo'jalik o'ralari qazib qisqa muddatli davrda aholini umurguzaronlik qilganligi kuzatiladi. Shaharning to'liq topografiyasini o'rganish uchun hali qilinishi kerak bo'lgan ishlar juda ko'p.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Anorboyev A. Islomov O'. Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. Toshkent.: Fan, 2001
2. Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni. – T. Fan. 2022
3. Matboboyev B. X. Shamsutdinov R. T. Mamajonov A. Buyuk Ipak yo'lidagi Farg'ona shaharlari. Andijon.: Meros, 1994
4. Matboboyev B. X. Qadimgi Farg'onaning ilk o'rta asrlar davri madaniyati (V-VIII asrlar arxeologik manbalarining tarixiy tahlili asosida). – Samarkand.
5. Isamiddinov M.H., Hasanov, N. Qambarov 2022-yili Quva arkida olib borilgan arxeologik qazishma ishlari // FarDU habarlari. 4-son Farg'ona. 2023
6. Анарбаев А.А. Ахсикет - столица древней Ферганы: Ташкент; 2013
7. Ахроров И. Археологические исследования городища Ахсикент в 1960 году //ОНУ. № 8, 1962
8. Бернштам А.Н. Древняя Фергана (научно-популярный). Ташкент. 1951
9. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-шаня и Памиро-Алая / МИА №26. М.-Л.: 1952
10. Булатова В.А. Буддийский храм VII в. в Куве. // СА. № 3. 1961
11. Булатова В.А. Жилой комплекс VII в. в Куве (результаты работ 1964 г.) // ИМКУ вып 7. С. 82 – 90. Ташкент. 1966
12. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры ташкентского оазиса. Ташкент. 1982
13. Иванов Г.П. Археологические работы Ферганского областного музея // АИ в Узбекистане - 2001. Ташкент 2002.
14. Иванов Г.П, Абдулахатов Н. Раскопки городища Кува // АИ в Узбекистане – 2002. С. 65–68.
- Ташкент 2003
15. Горбунова Н.Г. Культура Ферганы в эпоху раннего железа // АСГЭ. Вып.5. – Л.: Искусство, 1962
16. Горбунова Н.Г. Фергана по сведениям античных авторов // История и культура народов Средней Азии (Древность и средние века).–М.: Наука, 1976
17. Эшов Б. Кадимги Ўрта Осиё шахарлари тарихи.: Ташкент, 2006
18. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. М.: Наука.1962.
19. Заднепровский Ю.А. Основные земледельческие области Средней Азии в эпоху бронзы - раннего железа // Природа и человек. - М., 1988
20. Латынин Б.А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г. // АСГЭ. Вып. 3. -Л.: Искусство, 1961
21. Латынин Б.А. Вопросы хронологии земледельческих культур древней Ферганы // Исследования по археологии СССР. - Л., 1961A
22. Матбобоев Б.Х. Водийнома // Ахсикент-очик осмон остидаги музей: Андижон Унверситети; №3 (14) 2019
23. Құдратов С. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар: Тошкент; Фан; 1988 г.
24. Ширинов Т.Ш, Матбобоев Б.Х, Иванов Г.П. Ахмад Ал-Фарғоний даврида Кубо. Тошкент.: Фан, 1998